

## MULK HUQUQI, UNING ELEMENTLARI VA VUJUDGA KELISH ASOSLARI

*Raxmonov Shohruh Baxtiyor o'g'li*

*Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mulk huquqi, uning elementlari – egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari hamda mulk huquqining vujudga kelish asoslari tahlil qilingan, qonunchiligimizda mavjud normalar asosida mulk huquqining huquqiy tartibga solinishi, mulk huquqi vujudga kelishining qonuniy asoslariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish, bitimlar, topilmalar, mulk yaratish.

Mulk huquqi o'zga ashyoviy huquqlar tizimiga asos soluvchi (boshlang'ich) hisoblanadi. Boshqa huquqlar ushbu huquqdan vujudga kelish xarakteriga egadir. Mulk huquqi ashyoviy huquqning barcha alomatlariga ega bo'lib, muddatsiz hisoblanadi. Mulk huquqining tushunchasi FKning 164-moddasida belgilangan.

Unga ko'ra, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi obyektiv va subyektiv jihatidan ko'rib chiqilishi mumkin.

Obyektiv jihatidan mulk huquqi mulkdor tomonidan o'z mulkiga egallik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar tizimini tashkil etadi. Bu nuqtayi nazarda mulk huquqi – fuqarolik huquqining markaziy va asosiy institutidir. Har qanday subyektiv huquq kabi subyektiv jihatidan mulk huquqi ham, qonun tomonidan boshqarishga vakolat berilgan shaxsning ma'lum harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidir.

Ushbu nuqtayi nazaridan u o'z egasiga – mulkdoriga unga tegishli bo'lgan mulk xususiyati va foydalanish imkoniyatlarini belgilash va unga nisbatan to'liq xo'jalik hukmronligini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Xorijiy mamlakatlarda mulk huquqiga oid qoidalarga e'tibor qaratsak, shu narsa ma'lum bo'ladidki, xorijiy mamlakatlarda mulk huquqining turli konstruksiyalarni klassifikatsiya qilishning yagona universal asosi belgilanmagan. Shu bilan birga, pretsedentlarga yo'naltirilgan ingliz umumiy huquqini qabul qilgan AQShda mulkchilik munosabatlar garchi Konstitutsiya darajasida nazarda tutilsada (AQSh Konstitutsiyasiga V, XIV qo'shimchalar), biroq uning rivojlanishi va keng ifodalanishi alohida shtatlarning qonunchiligi va sud qarorlarida 156 mustahkamlangan.

Qolaversa, fuqarolik huquqi nazariyasi nuqtai nazaridan amerika mulk huquqi modelining asosida ushbu huquqning sub'ektiv tarkibi masalasi yotadi. AQSh mulk huquqi modelini oddiy va murakkab tuzilishli turlarga ajratish mumkin[1]. Oddiy yoki soddalashtirilgan model “bitta ashyoga – bitta to‘la huquqli mulkdor” tamoyiliga asoslanadi.

Bu konstruksiyada mazkur ashyoga u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan har qanday boshqa shaxslar “boshqa huquqli” shaxslar hisoblanadi va ashyoning mulkdori o‘zining egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishga dior vakolatlari yakka o‘zi amalga oshiradi. Shu ma’noda mulk huquqi mutlaq tus (fee simple absolute) kasb etadi. Angliyada 1925 yilda “Mol-mulk to‘g‘risida”gi Qonun (Law of Property Act 1925) qabul qilingan. Mazkur qonunda mulk huquqi mutlaq tusga egaligi nazarda tutilgan. Angliyalik mutaxassislarning ta’kidlashicha, ingliz mulk va egalik qilish huquqi rim huquqidagi ayniy tushunchalarga mos kelmaydi, ingliz huquqi mutlaq emas, ustuvor vakolatlarni belgilash tizimi hisoblanadi[2].

Germaniya Fuqarolik Tuzuklari (GFT) da mulk yoki xususiy mulk atamasilarning izohi berilmaganligi ko‘zga tashlanadi. Germaniya fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra, mulk huquqi keng mazmunli ashyoviy huquqning bir turi bo‘lib, faqat egasiga o‘ziga tegishli mol-mulkdan foydalanish yo‘nalishini belgilash, mol-mulkka nisbatan to‘liq xo‘jalik hukmronligini amalga oshirish imkoniyati beradi. GFTda mulk huquqi tushunchasi berilmagan, aksincha, mazkur tushuncha mulk huquqining mazmunini bayon etish yo‘li bilan izohlangan. Shunga qaramasdan, GFTning 903-moddasida mulk huquqining fuqarolik-huquqiy ta’rif mavjud. Unga ko‘ra, ashyoning egasi qonun yoki uchinchi shaxslarning huquqlari to‘sqinlik qilmaydigan darajada ashyoni o‘z xohishi bo‘yicha tasarruf etishi va boshqa shaxs tomonidan har qanday ta’sirni bartaraf etishi mumkin. Mazkur ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, GFTda mulk huquqi alohida vakolatlarning oddiy yig‘indisi emas, balki o‘ziga xos alohida huquq sifatida belgilangan[3].

Ingliz-amerika huquq tizimidan farqli ularoq, O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi mansub bo‘lgan qit’a huquq tizimida mulk huquqi “bitta ashyo – bitta mulkdor” oddiy mulk huquqi modeliga tayanadi. Ingliz-amerika tizimida “taqsimlangan mulk” modeli hukmronlik qilib, unga muvofiq bitta mulkka bir necha shaxslarning huquqi e’tirof etiladi.

Mulk huquqi vujudga kelishining dastlabki usullarga quyidagilar kiradi:

- mol-mulkni yaratish va ko‘paytirish;
- mehnat faoliyati; - mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, ko‘paytirish, bitimlar asosida qo‘lga kiritish;
- davlat mol-mulkini xususiylashtirish;
- meros qilib olish;

- egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat;
  - hamma yig'ib olishi mumkin bo'lgan ashyolarni mulkka aylantirish;
  - egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi;
  - topilmaga egalik huquqini olish;
  - qarovsiz hayvonlarga egalik huquqini olish;
  - xazinaga egalik huquqini olish;
- Mulk huquqi vujudga kelishining hosila usullariga quyidagilar kiradi:
- bitim bo'yicha mol-mulkni olish;
  - sudning qarori.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Joseph William Singer. Introduction to property. Aspen Publishers. – NY, 2005. - 13-15,20-22 p.
2. Bridge M. G. Personal Property Law. 3rd ed. London, 2002. P. 28 – 29
3. Ernest Joseph Schuster. The principles of German Civil law// Bibliolife, 2015, - 754 p.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1-qism Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 30.06.2022 y., 03/22/782/0576-son